



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
davlat va huquq asoslari
fani o'qituvchisi*

_____ ning
*20__-20__-o'quv yiliga 10-sinflar uchun
II yarim yillik*

***DARS
ISHLANMALARI***

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf davlat va huquq asoslari fanidan
II yarim yillik taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Fuqarolik huquqi asoslari. (BSB topshirig‘ining baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Fuqarolik- huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari	1		
3.	Mulkiy va nomulkiy munosabatlar	1		
4.	Majburiyatlar	1		
5.	Majburiyatlarning turlari	1		
6.	Iste‘molchilar huquqlari	1		
7.	Intellectual mulk	1		
8.	Vorislik	1		
9.	3-Nazorat ishi	1		
10.	Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi	1		
11.	Xalqaro huquq	1		
12.	Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik	1		
13.	Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari	1		
14.	O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni	1		
15.	O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi	1		
16.	O‘zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar.	1		
17.	4-Nazorat ishi	1		
18.	Ijodiy faoliyat.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Fuqarolik huquqi asoslari. (BSB topshirig'ining baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilish, kundalik hayotda huquqiy vaziyatlarni hal qila olishga, huquq normalarini hayotda mustaqil qo'llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o'rgatish, mustaqil o'qish, izlanish, tarixiy, ma'naviy, huquqiy manbalarni o'rganish asosida to'laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo'lish, mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo'lishiga, o'zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Rivojlantiruvchi: Mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O'zini –o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish;
ijtimoiy sohada qabul qilinayotgan mamlakat qonunlaridan xabardor bo'lib borish;
fanga oid bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
o'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatarga ega bo'lish; fanga oid bilimlarini boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lay olish;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar kons titutsiyaviy, oilaviy, ma'muriy, meh nat, fuqarolik, ekologik, xalqaro kabi huquq sohalari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, saylash, saylanish, murojaat qilish, mulkdor bo'lish kabi shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy,

ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari siz quyi sinfda tanishgan konstitutsiyaviy huquq bilan tartibga solinadi. Kundalik hayotda har bir shaxs O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklardan foydalanish bilan birga boshqa huquq sohaslariga tegishli huquqiy munosabatlarda (masalan, kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqib, do'kondan mahsulot sotib olish, transportdan foydalanganlik uchun haq to'lash, mulkka egalik qilish kabi munosabatlarda) ham ishtirok etadi. Ushbu huquqiy munosabatlar iqtisodiy, ya'ni mulkiy xarakterga ega.



Chunki oldi-sotdi, yoki chipta olish jarayonida o'rtada pul bo'ladi. Pul esa mulkiy xarakterga ega. Bu munosabatlarda bir taraf o'z ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga kerakli narsa yoki buyumni sotib olish uchun ikkinchi tarafga pul beradi, ikkinchi taraf esa berilgan pul evaziga birinchi tarafga u xohlagan narsa yoki buyumni berishga majbur bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ikki taraf ishtirok etadigan munosabat mulkiy xarakterga ega. Mulkiy xarakterga ega bo'lgan munosabatlarni, ayrim hollarda nomulkiy munosabatlarni ham fuqarolik huquqi tartibga soladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etadigan taraflarda o'ziga xos bo'lgan majburiyat va huquq kelib chiqadi. Ya'ni mahsulot sotib olgan taraf (xaridor) pul to'lash majburiyatini olsa, pulni olgan taraf (sotuvchi) xaridorga mahsulotni berish majburiyatini oladi. O'z navbatida, pul to'lagan taraf (xaridor) to'lagan puli evaziga mahsulotni olish huquqiga ega bo'lsa, (sotuvchi) mahsulotni xaridorga bergani uchun pul talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, fuqarolik huquqi tartibga soladigan munosabatlarning asosi mulkiy xarakterga ega ekan, ushbu fuqarolik-huquqiy munosabat taraflarning mulkiy xarakterga ega bo'lgan xatti-harakati (oldi-sotdi, qarz, bankka pul qo'yish, kredit olish kabilar) natijasida kelib chiqadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bitimlar fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlardir. Bitimlar shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini keltirib chiqaradigan kelishuvdir. Aynan bitim fuqarolik-huquqiy munosabatni vujudga keltiradi. Bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnomalar) bo'lishi mumkin.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Fuqarolarning huquqlari deganda nima tushuniladi?
2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardan qanday farq qiladi?
3. Shaxslar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga misollar keltiring.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, kundalik hayotda huquqiy vaziyatlarni hal qila olishga, huquq normalarini hayotda mustaqil qo'llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o'rgatish, mustaqil o'qish, izlanish, tarixiy, ma'naviy, huquqiy manbalarni o'rganish asosida to'laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo'lish, mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo'lishiga, o'zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Rivojlantiruvchi: Mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

Mavjud axborot manbalaridan foydalana olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; ta'lim muassasida qabul qilingan odob-axloq qidalariga rioya qilish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

FUQAROLIK HUQUQIDA “SHAXSLAR” TUSHUNCHASI

“Odam”, “kishi”, “inson”, “fuqaro”, “shaxs” kabi so'zlarga duch kelgansiz. Bu tushunchalar bir ma'noda tushunilsa-da, ularning o'ziga xos jihatlari mavjud. Odam barcha jonzotlarning eng yuqori pog'onasida turadigan mavjudot bo'lib, u ijtimoiy jarayonlar subyekti hisoblanadi, ya'ni odam tirik mavjudotning fiziologik, tibbiy, anatomik mazmuniga ega. Odam atrof-muhitga faol ta'sir ko'rsata olishi bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Kishi – jins nuqtayi nazaridan odamning ayol kishi yoki erkak kishi ekanini bildiradi, bu tushuncha ko'proq ijtimoiy mazmunga ega. “Inson”,

“fuqaro”, “shaxs” tushunchalari huquqiy nuqtayi nazardan odamning huquqiy maqomini ochib beradi. Masalan, inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, burchlari va hokazolar. “Shaxs” tushunchasi falsafiy, ijtimoiy, axloqiy tushuncha bo‘lib, u o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxsning hayot tarzi jamiyat hayotiga daxldor va “hayot” ne’matlaridan to‘la foydalanishga haqli. “Shaxs” tushunchasi “inson” tushunchasining yuksak ko‘rinishi, huquqiy maqomidir.

Siz bilib olasiz Huquqshunoslikda shaxs ikki turga bo‘linadi: jismoniy shaxs va yuridik shaxs. Jismoniy shaxs siz bilgan “inson” ma’nosiga mos keladi. Yuridik shaxs korxonalar yoki tashkilot bo‘lishi mumkin. Ya’ni ular faqatgina yuridik jihatdan qonunchilikdagi ba’zi hujjatlardagina shaxs sifatida mavjud bo‘lgani uchun “yuridik shaxs” degan atamadan foydalaniladi. Ba’zilar yuridik shaxs deganda yuridik sohada ishlovchi sudya, prokuror yoki advokat kabilarni tushunadi. Ularni mutaxassisliklaridan kelib chiqqan holda umumiy tarzda “yuristlar” deb atash mumkin. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda aynan ushbu shaxslar ishtirok etadi. Shuningdek, davlat ham fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan baravar asoslarda ishtirok etadi.

Fuqarolik munosabatlarida ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat “fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari” deb ataladi. Jismoniy shaxslar deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Jismoniy shaxslarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishlari ularning huquq layoqati va muomala layoqatiga bog‘liq bo‘ladi. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati “huquq layoqati” deb ataladi. Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Masalan, fuqarolarning mol-mulkka ega bo‘lishlari, mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari, bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari, bitimlar tuzishlari, yetkazilgan zararining to‘lanishini talab qilishlari, intellektual faoliyat yuritib, mualliflik huquqiga ega bo‘lishlari shular jumlasidandir. Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish layoqati “muomala layoqati” deb ataladi. Bunda muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxs, masalan, bitim yoki shartnoma tuzish, mahsulotlar xarid qilib olish, tadbirkorlik va mualliflik huquqini amalga oshirish kabi munosabatlarda ishtirok etadi. Fuqaro voyaga yetganida, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lganida to‘la muomala layoqati vujudga keladi. Qonunga ko‘ra, hech kimning huquq va muomala layoqati (qonunda ko‘zda tutilgan hollardan tashqari) cheklanishi mumkin emas. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalarining roziligisiz o‘zining ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini ishlatishi, mualliflik huquqini amalga oshirishi mumkin

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Fuqarolik huquqida “shaxslar” qanday tushuniladi?

2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyektlari deganda nima tushuniladi?

Jismoniy shaxslarning turlarini va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bayon eting.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat huquq fanidan 10-sinf II yarim yillik konspektni to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**